

O‘zbekiston Respublikasi  
Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza  
qilish davlat qo‘mitasi raisining  
2022 yil 28 sentyabrdagi 450-son  
buyrug‘iga  
2-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat  
qo‘mitasi, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida korrupsiyaviy  
xavf-xatarlarni aniqlash va baholash**

**USLUBIYOTI**

Mazkur Uslubiyot O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining (keyingi o‘rinlarda - Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari) faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibini belgilaydi.

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p duch keladigan vazifa va funksiyalarini aniqlash hamda korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini shakllantirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash quyidagilar ishlab chiqilishini nazarda tutadi:

- korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur;
- korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati;
- korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlarni elektron reestri.

3. Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**korrupsiyaviy xavf-xatar** – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli;

**korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi** – davlat tashkiloti faoliyatida amalga oshiriladigan vazifa va funksiyalar (jarayonlar) bilan bog‘liq yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi va darajasi, funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizmlar, funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas’ul bo‘lgan lavozim, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralar, qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi, korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish choralarini amalga oshirishga mas’ul ijrochilarni o‘z ichiga olgan hujjat;

**korrupsiyaga oid huquqbazarlik** – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash** – davlat tashkilotining faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tahlil qilish, mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ushbu xavf-xatarlar darajasini baholash bo‘yicha faoliyat;

**qoldiq xavf-xatar** – aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan choradan keyin saqlanib qoladigan xavf-xatar;

**maxsus bo‘linma** – davlat tashkilotidagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilma;

**ishchi guruh** – korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari mavjud bo‘limgan davlat tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uchun tuziladigan xodimlar tarkibi.

4. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili 1 martga qadar amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan (bundan buyon matnda - Agentlik) Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish borasidagi faoliyatini takomillashtirish, ushbu yo‘nalishda kamchiliklarning oldini olish bo‘yicha ko‘rsatmalar berishi mumkin.

## **2-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni tashkil etish**

6. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarini qamrab olishi lozim.

Bunda, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash maxsus bo‘linma yoki ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

7. Ishchi guruh a’zolari Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining boshqarma va bo‘lim rahbarlaridan iborat tarkibda tashkil etiladi.

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining birinchi rahbari tomonidan ishchi guruh tarkibi tasdiqlanadi hamda uning faoliyati muvofiqlashtiriladi.

8. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashda Davlat ekologiya qo‘mitasi markaziy apparatining maxsus bo‘linmasi (ishchi guruh) tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo‘yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish;

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihasini ishlab chiqish;

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihamini ko‘rib chiqish va ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar berish;

Agentlik va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihasini takomillashtirish.

9. Qo‘mitaning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlar va uning hududiy bo‘linmalaridagi maxsus bo‘linma (ishchi guruh) quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlarini tashkil etish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihamini ishlab chiqish.

### **3-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibi**

10. Maxsus bo‘linma (ishchi guruh) tomonidan Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining (vazifa va funksiyalarining) tavsifi ushbu Uslubiyotning 1-ilovasiga muvofiq shaklda tuziladi.

11. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari faoliyatidagi (vazifa va funksiyalardagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlar ichki va tashqi axborot manbalari asosida aniqlanadi.

12. Ichki axborot manbalari quyidagilardan iborat:

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining (vazifa va funksiyalarining) huquqiy asosi;

ichki tekshiruv materiallari, shu jumladan xizmat tekshiruvi materiallari; odob-axloq komissiyasi majlislarining yig‘ilish bayonnomalari; korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining monitoring natijalari; maxsus bo‘linma (ishchi guruh) tomonidan davlat tashkiloti faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o‘tkazilgan so‘rovnomalari, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari va boshqalar.

13. Tashqi axborot manbalari quyidagilardan iborat:

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari faoliyati to‘g‘risidagi huquqbazarliklar to‘g‘risidagi murojaatlar (xabarlar) va statistik ma’lumotlar;

Agentlik yoki boshqa davlat tashkilotlari tomonidan Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o‘tkazilgan so‘rovnomalari, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan materiallar va boshqalar.

14. Maxsus bo‘linma (ishchi guruh) tomonidan Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlashda quyidagi holatlar tahlil qilinishi lozim:

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining xodimi tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbazarlik;

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari tomonidan faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sun’iy to‘siqlarning mavjudligi;

o‘z vaqtida qaror qabul qilmaslik, asossiz tezkor tartibda qaror qabul qilish;

hujjatlar, elektron ma’lumotlar bazalariga bila turib yolg‘on ma’lumotlarning kiritilishi;

xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvi;

vakolatlarni amalga oshirishda mahalliychilik, homiylik, urug‘-aymoqchilik kabi holatlarning mavjudligi.

15. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi quyidagi o‘lchovlarda baholanadi:

past;

o‘rta;

yuqori.

16. Maxsus bo‘linma (ishchi guruh) tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

#### **4-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasini bartaraf etish choralari**

17. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

normativ-huquqiy hujjatlar hamda ichki idoraviy hujjatlar loyihamini ishlab chiqish;

inson omilini qisqartirish va davlat tashkiloti faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) raqamlashtirish, shaffoflikni ta’minlash, jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish;

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tartibga solish choralarini ko‘rish;

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari va jismoniy shaxslar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani maksimal darajada cheklash;

rasmiy veb-sayt va boshqa ommaviy axborot vositalarida Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni joylashtirish va tarqatish;

davlat xizmatlarini ko‘rsatish jarayonini soddallashtirish, asossiz cheklowlarni, ortiqcha ma’muriy tartib-taomillarni bekor qilish, byurokratik tartibga solish mexanizmlarini yo‘q qilish, taqdim etilgan hujjatlar soni va qaror qabul qilish muddatlarini qisqartirish;

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tushuntirish ishlarini amalga oshirish, profilaktik suhbatlar o‘tkazish, ishonch telefonlari va aloqa kanallarida targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;

xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha ichki hujjatlarga har kuni, o‘zaro va to‘liq rioya qilishlarini nazorat qilish.

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha qonunchilik hujjatlariga zid bo‘limgan boshqa chora-tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkin.

18. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha mazkur Uslubiyotning 16-bandida belgilangan choralardan kelib chiqib, qoldiq xavf-xatar darajasini baholash mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

19. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari markaziy apparatining maxsus bo‘linmasi (ishchi guruhi) tomonidan mazkur Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq shaklda markaziy apparatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi loyihasi ishlab chiqiladi.

20. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlar va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan ushbu Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaviy xavf-xatarlar xarita loyihalari va mazkur Uslubiyotning 4-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihalari ishlab chiqiladi.

Bunda, mazkur loyihalar Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari markaziy apparatining maxsus bo‘linmasiga (ishchi guruhiga) umumlashtirish uchun taqdim qilinadi.

21. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari markaziy apparatining maxsus bo‘linmasi (ishchi guruhi) tomonidan Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari asosida qo‘mitaning umumlashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqiladi va “E-anticor.uz” elektron platformasiga har yili 1 fevralga qadar kiritiladi.

22. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari markaziy apparatining maxsus bo‘linmasi (ishchi guruhi) tomonidan “E-anticor.uz” elektron platformasida joylashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga asosan avtomatik ravishda quyidagi xujjatlar shakllantiriladi:

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi;

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlari ro‘yxati.

## **5-bob. Korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reestri shakllantirish va yuritish tartibi**

23. Agentlik tomonidan “E-anticor.uz” elektron platformasida joylashtirilgan Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xarita loyihalari asosida avtomatik ravishda korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reestri shakllantiriladi.

24. Korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reestri loyihasi Agentlik tomonidan jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish uchun o‘n besh kundan kam bo‘limgan muddatga “E-anticor.uz” veb-saytiga joylashtiriladi.

25. Agentlik jamoatchilik muhokamasi natijalari bo‘yicha umumlashtirilgan takliflarni muhokama yakunlangan kundan boshlab o‘n kun ichida “E-anticor.uz” elektron platformasi orqali davlat tashkilotiga yuboradi.

26. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari markaziy apparatining maxsus bo‘linmasi (ishchi guruhi) Agentlik va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi loyihamini takomillashtiradi.

27. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining birinchi rahbari har yili 1 martga qadar korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturini “E-anticor.uz” elektron platformasi orqali tasdiqlaydi.

#### **6-bob. Yakuniy qoidalar**

28. Mazkur Uslubiyot talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, uning hududiy bo‘lmalari va tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotiga  
1-ILVOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, uning hududiy bo‘limlari va  
tizim tashkilotlari faoliyatining  
(vazifa va funksiyalarining)  
TAVSIFI**

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, uning hududiy bo‘limmalari va tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotiga  
2-ILOVA

## **Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish bo‘yicha MEZONLAR**

<b>Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi</b>	<b>Mezonlar</b>
Yuqori*	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) avtomatlashtirilmagan
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi)tartibga solinmagan
	nazoratsiz tartibda ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiya) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko‘rib chiqishda va qabul qilishda bir shaxs ishtirok etishi
	davlat tashkilotining faoliyatini (vazifa va funksiyani) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilgan (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlangan)
O‘rtta*	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman avtomatlashtirilgan
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman tartibga solingan
	nazorat tartibida ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	davlat tashkilotining faoliyatini (vazifa va funksiyani) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko‘rib chiqishda va qabul qilishda ikkita shaxs ishtirok etishi
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to‘g‘risidagi ma’lumot mavjud (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlanmagan)
Past**	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) to‘liq avtomatlashtirilgan
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) to‘liq tartibga solingan
	jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilish imkoniyati mavjud emas

<b>Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi</b>	<b>Mezonlar</b>
	<p>davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda uch va undan ortiq shaxs ishtirok etishi</p> <p>korrupsiyaviy xatti-harakat va korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to‘g‘risidagi ma’lumot mavjud emas</p>

\*Maxsus bo‘linma (ishchi guruh) tomonidan davlat tashkilotining faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan xavf-xatarning yuqori yoki o‘rtा darajada deb baholash davlat tashkiloti rahbari bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

\*\* Davlat tashkilotining faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashda, agarda past darajadagi mezonlarning biri mavjud bo‘lsa, o‘sha korrupsiyaviy xavf-xatar darjasini past darajada deb baholanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, uning  
hududiy bo‘limmalari va tizim tashkilotlari  
faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash  
va baholash uslubiyotiga  
3-ILOVA

“

**“TASDIQLAYMAN”**  
Davlat tashkilotining rahbari  
**F.I.O.**  
“ ” yil

**O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, uning hududiy bo‘limmalari va  
tizim tashkilotlarning faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning**

**XARITASI**

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi	Korrupsiyaviy xavf-xatarning darajasi (past, o‘rta, yuqori)	Funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas’ul bo‘lgan lavozim	Funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizm	Korrupsiyaviy xavf- xatarlarni bartaraf etish choralari	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi (past, o‘rta, yuqori)	Mas’ul ijrochilar
<b>1. Tarkibiy bo‘linmaning nomi*</b>							
1.	<b>1. Davlat tashkiloti funksiyasi nomi</b>						
	<b>1. Funksiyaga oid munosabat nomi</b>						
	<b>1.Jarayon nomi</b>						
	<b>2. Jarayon nomi</b>						
<b>2. Tarkibiy bo‘linmaning nomi*</b>							
2.	<b>1. Davlat tashkiloti funksiyasi nomi</b>						
	<b>1. Funksiyaga oid munosabat nomi</b>						
	<b>1.Jarayon nomi</b>						
	<b>2. Jarayon nomi</b>						

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, uning  
hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari  
faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash  
va baholash uslubiyotiga  
4-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, uning hududiy bo‘linmalari va  
tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish  
DASTURI**

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas’ullar